


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI



Ro'yxatga o'lingan № BD-60230100-1.08
2024-yil "15" _____

**G'ARB TILI VA ADABIYOTI
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar

Ta'lim yo'nalishi:

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(arab, xitoy, koreys, yapon, turk tillari)

Fan/modul kodi G'TA11-728	O'quv yili 2024-2025 2025-2026 2026-2027 2027-2028	Semestr 1,2,3,4,5,6,7	ECTS - Kreditlar 28
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Jami yuklama (soat)
	G'arb tillari va adabiyoti (ingliz tili)	420	840

1. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga o'rganilayotgan g'arb tili va adabiyotini kasbiy faoliyatda amaliy qo'llay olish tamoyillariga amal qilgan holda integrallashgan yondashuv asosida o'rgatish, o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida ravon va aniq so'zlashishlarini ta'minlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarni nutq vaziyatlaridan to'g'ri va umumli foydalanishga o'rgatish, umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko'ra talabalarining g'arb tili va adabiyoti 4 yil (kurs) davomida A1 darajadan B2 darajagacha egallashlari uchun zaruriy til ko'nikmalarini integrallashgan tarzda o'rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdan iborat.

II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)

II.1. Fan tarkibiga xoriijiy tillarni o'rganishning barcha kompetensiyalari kiradi:

G'arb tili va adabiyoti fanidan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda barcha til ko'nikmalari: tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish talabalarga integrallashgan holda o'qitiladi. Mazkur dasturda mavzular umumiy shaklda ko'rsatib o'tilgan. Dasturda ko'rsatib o'tilgan mavzular kurslar kesimida sillabuslarda batafsil yoritiladi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, o'tkazish va talabalarining tilni o'zlashtirganliklarini baholashda til egallashning xalqaro e'tirof etilgan mezonlariga amal qilinadi.

Tinglab tushunish kompetensiyasi bo'yicha:

A1 daraja – kishilar sekin va aniq gaplashishganda talaba suhbat mavzusiga oid so'zlarni va sodda gaplarni tushunishi lozim.

A2 daraja - o'ziga tanish mavzularga (qisqa jumlarlar, murakkab bo'lmagan matnlar va h.k.) oid ko'p ishlatiladigan so'z va iboralarni shuningdek, qisqa, aniq, sodda xabar va e'lonlarning asosiy mazmunini tushuna olishi kerak.

B1 daraja – o'ziga tanish bo'lgan mavzular bo'yicha (kasb, xarid, ta'lim muassasasi va b.) aytilgan aniq gapning asosiy mazmunini anglay olishi,

bunda asosan matn va hikoyalardagi muhim so'z va iboralar, so'z birkimlari ahamiyat qaratgan hikoyaning mazmunini tushunish nazarda tutiladi.

B2 daraja - ma'ruzalar yoki televideniya orqali beriladigan katta hajmdagi nutqni, notanish mavzulardagi qiyin bo'lgan nutq, jumladan, TV yoki radio dasturlari orqali beriladigan yangiliklarni, ko'rsatuvlarni ko'rib, tinglab, tushuna olish. Shuningdek, tomosha qilish jarayonida muhokama qilinayotgan mavzularning asosiy g'oyasini anglashi, adabiy tilda namoyish qilinadigan filmlar, asarlar mazmunini yaxshi tushunishi lozim.

O'qish kompetensiyasi bo'yicha:

A1 daraja – o'qish jarayonida sodda gaplar (qayerdan, qayerga) bilan bayon etilgan so'z va iboralarni tushunishi kerak. (m.n., xarid qilingan buyumlarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar, belgilar, jadvallar va h.k.)

A2 daraja – juda qisqa, sodda matnlarni (qaydlar, eslatmalar, ko'rsatmalar) o'qib tushuna olishi, kundalik hayotga taalluqli (e'lon, reklama, menyu) matnlardan o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni topa olishi, qisqa va sodda yozilgan shaxsiy xatlarni o'qib tushunishi ko'zda tutiladi.

B1 daraja – kundalik turmushda ishlatiladigan, ishga, o'qishga, savdo – sotiqqa va shu kabilarga taalluqli bo'lgan so'zlar asosida tuzilgan matnlarni, ma'lumotlarni, axborotlarni yoki voqea-hodisalarni qiyinchiliksiz tushunish va ularga to'g'ri fikr bildirish lozim.

B2 daraja – turli mavzulardagi maqolalarni, matnlarni, ma'lumotlarni o'qib tushuna olishi, shu bilan bir qatorda badiiy asarlar va xorijiy jurnallarda nashr etilgan ma'lumotlarni o'qib mazmunini tushunishi lozim. Chunki talaba asarni o'qiyotganida uning so'zma-so'z tarjimasiga emas, balki asosiy g'oyasiga e'tibor qaratishi nazarda tutiladi.

Yozish kompetensiyasi bo'yicha:

A1 daraja – sodda gaplar va qisqa jumalarni, masalan pochta orqali jo'natiladigan xat, xabarlar va shu kabilarni yoza olishi. Shu bilan birga shaxsiy ma'lumotlar (ism, familiya, millat va manzili) kiritilishi talab etiladigan maxsus blanklarni to'ldirish lozim.

A2 daraja - qisqa va sodda gaplar yoza olishi, masalan, do'stiga sodda gaplarb ishtirokida xatlar, xabarlar va h.k yoza olishi lozim.

B1 daraja – talabani qiziqirgan yoki unga tanish bo'lgan mavzularda mazmunli xat va insholar yoza olishi, shuningdek, talaba o'qigan asarlari yoki ko'rgan filmlari haqida o'z fikrini yozma ravishda ifodalay olishi kerak.

B2 daraja – talaba berilgan mavzu, badiiy asar, badiiy film, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy hayotga oid mavzular yuzasidan rasmiy xatlar, insholarni shaxsiy qarashlariga asosan yozma ravishda aniq ifoda eta olishi lozim.

Gapirish (dialog, monolog) kompetensiyasi bo'yicha:

A1 daraja (dialog) – o'rganilgan materiallar bo'yicha fikr bildirish, berilgan savollarga to'g'ri javob bera olishi, shuningdek, mustaqil ravishda

sodda gaplar hamda savollar bera olishi.

Monolog - yashayotgan manzili, oila a'zolari va do'stlari haqida talab darajasida o'z fikrini bayon eta bilishi lozim. Shuningdek, do'kon va mehmonxonalarda ishlatilishi mumkin bo'lgan gaplarni gapira olishi lozim.

A2 daraja (dialog) – kundalik hayotga taalluqli murakkab bo'lmagan va tanish mavzularda muloqotga kirisha olishi, ba'zida yaxshi tushuna olmasada muloqotni davom ettirish uchun o'ziga yoqqan va yotqan narsalar haqida gapira olishi, istaklarini sodda tilda bayon eta olishi kerak.

Monolog - oila, kundalik hayot, turmush tarzi, ta'lim olgan muassasalari va kasbini ta'riflash uchun so'z va iboralar tanlay olishi, ular yordamida gapira olishi lozim.

B1 daraja (dialog) – talaba o'rganayotgan ikkinchi chet tilida xuddi ona tilida gaplashgandek gaplasha oladigan kishilar bilan kundalik mavzularda suhbat qura olishi, oila, xobbi, kasbiy faoliyat kabi mavzulardagi suhbatlarga osonlikcha qo'shila olishi hamda o'z fikr-mulohaza, his-tuyg'u va taassurotlarini bildirsa oladi.

Monolog - talaba sodda gaplar bilan voqea-hodisalar, orzu-istak va niyatlarini ifodalay olishi, badiiy asar yoki film syujetlarini gapirib, taassurotlarini ifoda eta olishi lozim.

B2 daraja (dialog) – til sohiblari bilan erkin muloqot olib bora olishi, tanish mavzular muhokamasida faol ishtirok etishi, shuningdek, til sohiblaridan intervyu olish va o'z navbatida ularning savollariga javob qaytara oladi.

Monolog - talaba ijtimoiy global muammolar: atrof muhit, siyosiy jarayonlar, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim to'g'risidagi o'zgarishlar bo'yicha aniq va murakkab strukturali gaplar tuza olishi, tegishli mavzularga oid voqea-hodisa, narsalarni ta'riflay olishi lozim.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ikkinchi chet tilidan barcha mashg'ulotlar amaliy shaklda, interaktiv metodlarasosida o'tkaziladi. Tilni aspektlar kesimida o'rgatishda jumladan,

➤ Grammatikani o'rgatishda

- grammatikani o'qitish (grammatika va ma'no; grammatika va funksiya);
- grammatikani o'qitishga deduktiv va induktiv yondashuv;
- grammatikani kontekst orqali o'rgatish;
- grammatik lug'atlardan foydalanish;
- grammatik vazifalarni tahlil qilish;
- grammatik mashq, topshiriq, vazifa, testlarni tuzish.

➤ Fonetikani o'qitishda

- muvaffaqiyatli muloqot uchun talaffuzning muhimligi;
- urg'uni (so'z urg'usi, gap urg'usi) o'rgatish;
- intonatsiya, intonatsiyaning munosabatni bildirish va grammatik funksiyalarini o'qitish;
- tovushlarni izolyasiyada va kontekstda o'qitish farqlari;

- fonologik vazifalarni tahlil qilish;
- fonetika o'ld mashq, topshiriq, vazifa, testlarni tuzishga o'rgatish maqsadga muvofiq.

➤ Leksikani o'qitishda

- so'z va uning paydo bo'lishi;
- leksikani kontekstda o'qitish;
- leksik birliklar/iboralar/birikmalarni o'qitish;
- yangi leksikani o'rgatish (rasm, realiya, qo'shiq, multimedia va h.k.dan foydalangan holda);
- pedagogik maqsadlarda internet ma'lumotlaridan foydalanish;
- talabalarining leksikani o'rganish strategiyalarini rivojlantirish;
- leksik vazifalarni baholash;
- leksik vazifa, topshiriq va testlar tuzishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tilni o'qitish jarayonida ijtimoiy hayot va jamiyatning turli sohalariga oid dolzarb mavzularni qamrab olish ko'zda tutiladi. Jumladan quyidagi mavzularni o'rganish, muhokama va tahlil qilish tavsiya etiladi:

- Tanishuv.
- Oila.
- Turar joy.
- Ovqatlanish, milliy taomlar.
- Sog'lom turmush tarzi.
- Sport.
- Ekologiya.
- Ish va dam olish kunlari.
- Xarid qilish.
- Kiyinish madaniyati.
- Urf-odatlar.
- Til o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyati
- Mening universitetim
- Mening kasbim.
- Madaniy hordiq.
- Yil fasllari.

- Mening qiziqishlarim.
- Telefonda suhbat.
- Sayohat.
- Transport.
- Kashfiyotlar.

- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatning iqtisodi.
- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatning davlat tizimi.
- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatning ta'lim tizimi.
- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatning geografik joylashuvi, maydoni va aholisi.

<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatning diqqatga sazovor joylari. • O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatning milliy ramzlari. • O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatning buyuk siymolari. • O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy- siyosiy va madaniy aloqalari. • Davning eng aktual muammolari va ularning yechimi: globallashuv va integratsiya; terrorizm; odam savdosi; giyohvandlik va uning oqibatlari; ishsizlik; ekologiya va salomatlik. • Xalqaro hamkorlik: ijtimoiy-siyosiy munosabatlar; madaniy-ma'rifiy munosabatlar; xalqaro turizm va uni rivojlantirish kontsepsiyasi. <p>Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar yakka holda, juftlikda va kichik guruhlarda ishlaydilar. O'qitish metodikasi amaliy vazifalar, dolzarb maqolalar muhokamasi, turli janrdagi matnlarni tahlil qilish, internet matnlari bilan ishlash, o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini baholovchi testlar va mustaqil o'qishga yo'naltirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o'tilishi, shu jumladan, darslarda videomahsulotlardan, xususan, "Ibrat farzandlari" platformasidan keng foydalanish, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p>	<p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shaxsni rivojlantirishda oliy ta'limning roli: oliy ta'lim darajalari, kvalifikatsiya, sertifikat va diplom. 2. Tili o'rganilayotgan mamlakatlarda talabalar hayoti. 3. Zamonaviy dunyoda chet tilining o'rni. 4. Tili o'rganilayotgan mamlakatlarning milliy urf-odatlari, an'analari, bayramlari. 5. Sog'lom turmush tarzi: sport va fitness, qishki va yozgi sport turlari. 6. Ilmiy-texnik taraqqiyot va uning informatsion texnologiyalar sohasidagi yutuqlari. 7. Axborotlashgan jamiyatning ijobiy va salbiy tomonlari. 8. Tili o'rganilayotgan mamlakatlarda oilaning jamiyatdagi o'rni. 9. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish: xalqaro ekologik harakatlarni vatashkilotlar. 10. Xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO va b.) va ularning global muammolari hal etishdagi o'rni. 11. XXI asr informatsion texnologiyalari rivojining asosiy yo'nalishlari. 12. Xalqaro turizm: ommabop sayyohlik yo'nalishlari <p>Ikkinchi chet tilini o'qitish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiriladi va ulardan o'z fikrini</p>
---	---

<p>o'rganilayotgan chet tilida bayon qilish talab qilinadi. Talabdan fan bo'yicha mustaqil o'rganigan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv usullar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o'rgata olishi talab etiladi.</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilining fonetik va grammatik qonuniyatlari; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida og'zaki va yozma nutq amaliyoti; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilini xalqaro va milliy standartlarga ko'ra B2 darajada o'zlashtirish; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida turli til materiallari bilan ishlash usullari to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida o'z fikr va mulohazalarini lingvistik bilimlarga tayangan holda mantiqiy bayonetishni; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilidagi og'zaki va yozma shakldagi ma'lumotlarni tushunish strategiyalarini; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilining fonetik va grammatik strukturalariga oid bazaviy va kommunikativ jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan til birliklari va qonuniyatlarini nutq jarayonida qo'llay olishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; 	<p>3.</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida chop etilgan turli materiallar va axborot beruvchi boshqa vositalardan olingan autentik til materiallarini tushunish va tahlil qilish; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida maxsus nomalar, biznes xatlar, elektron xatlar yozish; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida esse, xulosa va tezislarlarga annotatsiya yoza olish; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida so'zlashuvchilar bilan muloqotga kirishish; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida o'z sohasiga oid mavzularda intervyuda qatnasha olish, rasmiy savol-javoblarda ishtirok etish, ma'lum mavzu bo'yicha taqdimot qila olish <i>malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <p>Fanni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodi va chet tilini o'qitishga kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. Mashg'ulotlarda darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari autentik materiallar: audio, video, gazeta va jumallar, internet manbalaridan, interaktiv usullarni qo'llagan holda aqliy hujum, keys-stadi, loyiha, rolli o'yin, debatlar, prezentatsiya metodlaridan keng foydalaniladi.</p>	<p>4.</p>
<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Talaba til egallashning xalqaro e'tirof etilgan darajalariga muvofiq o'rganilayotgan ikkinchi chet tilini kurslar kesimida talab etilgan darajada</p>	<p>5.</p>

6	<p>(A1-B2) bosqichma-bosqich o'zlashtirib borishi shart. Jumladan, auditoriyada bajariladigan mashq va topshiriqlar, portfolio, kundalik, loyihalar, intervyu va rolli o'yinlarda faol ishtirok etishi, video va audio materiallarni tushunib tahlil qilishi, muhokamalar jarayonida xorijiy tildan unumli foydalana olishi, oraliq va yakuniy nazoratda matnga asoslangan vazifalardan iborat turli test va topshiriqlarni bajarishi, mantiqiy savollarga mustaqil ravishda xorijiy tilda javob bera olishi, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirib borishi, mustaqil ta'lim uchun berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi lozim. Ikkinchi chet tili bo'yicha egallangan bilimlarni nazorat qilishda til bo'yicha barcha kompetensiyalar o'zlashtirilganligi inobatga olinadi.</p>
	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Roadmap A1-B2 Student's Book Heather Jones and Monica Berlis 2019 2. Essential Grammar in Use Raymond Murphy A1-B2 2018 3. Destination Grammar and Vocabulary Malcolm Mann and Steve Taylore- Knowles A1- B2 2008 4. Essential English words Paul Nations 2009 5. Reading Challenge 1 Second Edition Casey Malarcher and Andrea Janzen 2010, A1- B2 6. Navigate A1- B2 Caroline Krantz 2016 7. Solution A1- B2Tim Falla 2018 8. Key note A1- B2 Collen Sheils 2011 9. Outcomes A1- B2 Hugh Dellar 10. Select readings A1-C1Linda lee 2010 11. "A Christmas Carol" Charles Dickens. 2018, London 12. "A little Princess" Frances Hodgson. 2011- Oxford 13. "Alice's Adventures" -Lewis Carroll. 1999- Cambridge 14. "Adventures of Huckleberry Finn" Mark Twain. 2018- New-York 15. "Andersen's Fairy Tales" H.C Andersen. 2018- Berlin 16. "Around world in 80 days" Jules Verne. 2012- Gutten Berg 17. "David Copperfield" Charles Dickens. 2016-London 18. "Grim's fairy tales " Jacob Grimm. 2016-Hamburge 19. "Gulliver's travels" Jonathan Swift. 2005- Oxford 20. "Hamlet" William Shakespeare.1971- London 21. "Hard times" Charles Dickens. 2013- Oxford 22. "Leaves of grass" Walt Whitman. 2008- Cambridge 23. "Moby Dick" Herman Morgan. 2017- Berlin 24. "Notre de Paris" Victor Hugo. 2009-Paris 25. "Oliver Twist" Charles Dickens. 2008- Oxford 26. "Peter Pan" John Barrie. 2008- Oxford 27. "Pride and prejudice" Jane Austen. 2008- London 28. "Sense and sensibility" Jane Austen. 2015- London 29. "The adventures of Pinocchio" Carlo Collodi. 2006- London

	<ol style="list-style-type: none"> 30. "The adventures of Tom Sawyer". 2018-Mark Twain 31. "The call of the wild" Jack London. 2008- London 32. "The Canterbury tales" Geoffrey Chaucer. 1971- London 33. "The count of Monto Cristo" Alexandre Duma. 2008- Paris 34. "The gift of magi" O. Henry. 2005- New-York 35. "The hound of Buskerville" A. Conan Doyle.2008- York 36. "The Iliad" Homer. 2006- Berlin 37. "The last of Mohicans" James Cooper.2018- Washington 38. "The Robinson Crusoe" Daniel Defoe. 2015- Marcell <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. John & Liz Soars "New Headway" (all levels) Oxford University Press 2. Malcolm Mann "Destination" (fullset) Macmillan Education, UK- 2013 3. Cambridge English Skills Real Listening and Speaking 2 with Answers and Audio CD: Level 1-2 4. Philip Kerr & Ceri Jones Strightforward Upper-Intermediate Maxmilan <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p style="text-align: center;">Ingliz tili</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Matt Clark – IELTS Speaking 2007 2. IELTS high score vocabulary list English – Timothy Dickson 2012 3. Muminov O va boshqalar. English for translators-Toshkent 2005 4. Get IELTS band 9 in writing task 1, Data, Charts and Graphs – Cambridge IELTS Consultants and Jessica Alpeme, Peter Switers 2014 5. Get IELTS band 9 in academic writing – Cambridge IELTS Consultants and Jessica Alpeme, Peter Switers 2014 <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. https://ibratfarzandlari.uz 2. https://www.scribd.com.roadmap 3. https://www.at.alteeng.org 4. https://www.scribd.com. 5. https://aporyanblog.files.wordpress.com 6. https://www.academia.edu 7. https://www.amazon.co.uk
7.	<p>Samarqand davlat chet tillar institut tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil " _____ " dagi " _____ " -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: Q.A. Egamnazarov-SamDChTI, Ikkinchi chet tillar kafedrasi mudiri, f.f.f.d (PhD), dotsent H.D. Eshmuradova- SamDChTI, Ikkinchi chet tillar kafedrasi katta o'qituvchisi V.Sh. Abdullayeva- SamDChTI, Ikkinchi chet tillar kafedrasi assisstant –o'qituvchisi</p>

9.	<p>Taqrizchilar: G.H.Obruyeva-SamDChTI, Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrası mudiri, f.f.n. dotsent T.S.Imoilov – O‘zDJTU, ingliz tili-3 fakulteti dekani, f.f.f.d (PhD) dotsent</p>
----	--